

**BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH:
O'QUV DASTURI-O'QITUVUCHI-BAHOLASH
KALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI**

**“BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-
BAHOLASH”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-
УЧИТЕЛЬ -ОЦЕНИВАНИЕ»**

**МАТЕРИАЛЫ
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**“IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT:
CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT”**

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE**

2023-yil 19-oktabr

BUXORO – 2023

Taklif qilingan ishlab chiqilgan metodika qay darajada samarali bo‘lishini tekshirish uchun ushbu tadqiqotda talabalarining pragmatik kompetensiyasini korpusli texnologiyalar asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish uning metodikasini ishlab chiqishda quyidagilar amalga oshirilsa samarali bo‘ladi degan taxminda iborat bo‘lgan farazning to‘g‘riligini isbot qilgan eksperimental o‘qitish amalga oshirildi:

- korpusli texnologiyalarning lisoniy didaktik xossalari hisobga olinsa;
- psixologik-pedagogik sharoitlar hisobga olinsa (tahsil oluvchilarning pragmatik kompetensiyani korpusli texnologiyalar asosida shakllantirishga motivatsiyasi; tahsil oluvchilarda xorijiy til kommunikativ kompetensiyasining V1 dan kam bo‘lman darajada shakllanganligi; tahsil oluvchilarda AKT kompetentligining shakllanganligi; o‘qituvchida AKT kompetentligining shakllanganligi; talabalarning pragmatik kompetensiyani korpusli texnologiyalar asosida shakllantirish algoritmiga rioya qilishlari);
- o‘qitish besh alohida ajratilgan bosqichlarga (maqsadli, tashkiliy-texnik, tadqiqotchilik, kommunikativ, baholash) va 12 qadamga muvofiq tashkil etilsa.

Ishchi farazni tekshirish uchun ushbu tadqiqotda quyidagi vazifalarni ko‘rib chiqishga qaror qilindi:

- nazorat va eksperimental guruuhlar talabalarining pragmatik kompetensiyasining shakllanganligining boshlang‘ich darajasini aniqlash;
- eksperimental guruuhni pragmatik kompetensiyani korpusli texnologiyalar asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan holda o‘qitish; nazorat guruuhini korpusli texnologiyalarni qo‘llamasdan o‘qitish;
- nazorat va eksperimental guruuhlar talabalarining pragmatik kompetensiyasining shakllanganligining yakuniy darajasini aniqlash;
- eksperimental o‘qitish davomida olingan ma’lumotlarning statistik qayta ishlovini amalga oshirish;
- eksperiment davomida olingan ma’lumotlarning tahlilini amalga oshirish, hamda ularning statistik qayda ishlovini muhokama qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Евстигнеев М.Н. Структура ИКТ компетентности учителя иностранного языка // Язык и культура. 2011. № 1(13). С. 119–125.
2. Маркова Ю.Ю. Методика развития умений письменной речи студентов на основе вики-технологии (английский язык, языковой 160 вуз): автореф. дис. канд. пед. наук. М.: МГГУ им. М.А. Шолохова, 2011.
3. Сёминич Ю.И. Методика обучения студентов направления подготовки «Журналистика» иноязычному письменному высказыванию на основе корпусных технологий: автореферат дис. канд. пед. наук. Тамбов: ТГУ имени Г.Р. Державина, 2019.
4. Сластенин В.А. и др. Педагогика Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. – 576 с.

“FOLKLOR TILI” TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI

Navruzova Muyassar Gaybullayevna

Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Folklor tili folklor ichidagi xalq nutqi namunalarini o‘rganish imkonini beradi. Maqolada shu haqida so‘z borgan. Bundan tashqari maqolada “Folklor tili” tushunchasining mazmuni yoritilgan. Shu bilan birgalikda, folklorshunoslik fanining vazifalari aytilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, folklorshunoslik, folklor tili, folklor leksikologiyasi lingvofolkloristika.

Аннотация. В статье рассматривается язык фольклора, который дает возможность изучать примеры народной речи внутри фольклора. Кроме того, в статье раскрывается содержание понятия «фольклорный язык». Наряду с этим упоминаются задачи фольклористики.

Ключевые слова: фольклор, фольклористика, фольклорный язык, фольклорная лексикология, лингвофольклористика.

Annotation. The article examines the language of folklore, which makes it possible to study examples of folk speech within folklore. In addition, the article reveals the content of the concept of “folklore language”. Along with this, the tasks of folkloristics are mentioned.

Key words: folklore, folkloristics, folklore language, folklore lexicology, linguofolkloristics.

Dunyo tilshunosligida folklor leksikologiyasi, dialektologiyasi va krossmadaniy lingvofolkloristikasi sohasi tobora rivojlanib bormoqda. Folklor tili va unda qo‘llanuvchi so‘zlarning izohli lug‘atini tuzishga e’tibor oshirilmoqda. Dunyo folklorshunosligida ham xalq tabobati bilan bog‘liq poetik aytimlar borligi, ularning so‘z sehriga ishonchdan kelib chiqqani, janr xususiyatlari alohida e’tirof etilgan. Shu sirada xalqlar folklori tilida uchraydigan tibbiy birliklarning arxaik, tarixiy hamda zamonaviy, gender turlarini dalillash, leksik-semantik jihatdan tasniflash, morfologik strukturasini kuzatish, lug‘atlashtirish tamoyillarini aniqlash, etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlarini bevosita folklor asarlari misolida oydinlashtirish dolzarb masalalar qatoriga kiritilmoqda.

Xalq og‘zaki badiiy ijodini o‘rganuvchi fan nomini bildiruvchi “folkloristika”, “follershunoslik” “lingvofolkloristika” atamalari asosida “folklor” termini yotadi. Ma’lumki, XIX asrning boshlarida yaratilgan adabiy-badiiy asarlar va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda «xalq ijodi» ma’nosini anglatuvchi turli xil atamalar qo‘llanilgan. 1813- yilda nemis olimi I.F.Knafl tomonidan xalq og‘zaki ijodi va u bilan bog‘liq marosimlar nomini bildiruvchi «das Volkstum», “die Volkskinde”, “die Volksforschung” singari atamalar qo‘llanilgan. Shuningdek, o‘sha paytlarda Fransiyada “traditions populaires”, Italiyada “tradizioni popolari”, Ispaniyada “tradiciones populares” atamalari ham «xalq ijodi» ma’nosida ishlatilgan. Folklor xalq ommasining kollektiv ijodi mahsuli bo‘lganligi uchun uni xalq ruhiyatining ommaviy ifodasi bilan borliq hodisa sifatida talqin qilish an’anasi ham mavjud bo‘lgan. Shu tariqa xalq ijodini o‘rganuvchi fan ma’nosida qo‘llanilgan «demologie» (Italiya), “demosofia” (Ispaniya) terminlari yuzaga kelgan¹.

O‘zbek folklorshunosligi Mahmud Koshg‘ariy, Muhammad Narshaxiy, Zamaxshariy, Beruniy, Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Gulxaniy kabi olim va adiblarning folklor asarlarini yozib olish borasida amalga oshirgan ishlari orqali vujudga keldi. Xalq og‘zaki badiiy ijodini o‘rganuvchi fan sifatida folklor manbalarini yozib olish, to‘plash, nashr etish va o‘rganish tili va tarixini yaratish, XIX asr oxiri XX asr boshlarida H.Vamberi, A.Divayev, A.Eyxgorn, A.N.Samoylovich, N.P.Ostromov, B.Vyatkin, L.Kun, N.Likoshin va boshqalar tomonidan o‘zbek folklorining to‘planishi va o‘rganilishini tahlil qilish, D.Zarifovning o‘zbek folklorshunosligi faniga asos solganligi ham ushbu sohaning rivojiga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek folklorshunosligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish, folklorshunoslikka oid manbalar va ilmiy adabiyotlarning bibliografik ko‘rsatkichlarini tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda folklorshunoslik o‘ziga xos ilmiy maktablarga ega bo‘lgan fundamental fan sifatida taraqqiy etmoqda. Hozirgi davrda xalq ijodiyotini turli yondosh fanlarning nazariyalari asosida kompleks tadqiq etish an’anasi kuchayganligi bois, folklorshunoslikning «etnofolkloristika» (xalq ijodini etnografik hamda folkloristik aspektda tekshirish), «etnolingvistika» (o‘zbek tilidagi urf-odat, marosim, turli ishonch-e’tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lgan dialektizmlarni etnofolkloristik jihatdan tahlil qilish), «arxeofolkloristika» (arxeologik topilmalarda o‘z aksini topgan folklor syujetlari, obraz va motivlarni o‘rganish hamda

¹¹Жўраев.М. Фольклоршунослик асослари.Т. 2000-у. - Б.194

xalq og‘zaki ijodining muayyan janriga oid u yoki bu syujet, motiv, obraz va badiiy detalning genezisini arxeologik yodgorliklardagi suratlar, chizgi va ifodalarga qiyoslab tadqiq etish) yo‘nalishlari yuzaga keldi.

Folklorshunoslik fani tilshunoslik bilan, ayniqsa, uning lug‘aviy birliklarini o‘rganuvchi leksikologiya yunalishi bilan chambarchas bog‘liqidir. Folklor tili (folklor leksikologiyasi), folklor leksikografiyasi, folklor dialektologiyasi, lingvofolkloristika, etnofolkloristika, krossmadaniy lingvofolkloristika singari sohalarga o‘zbek tilshunosligida e’tibor kuchayib, bu borada ko‘lamli tadqiqot ishlari olib borilayotgani quvonarli holdir.

Folklor leksikologiyasi lingvofolkloristikaga aloqador soha bo‘lib, folklor tilining lug‘at boyligini, xalq og‘zaki poetik ijodida qo‘llanuvchi so‘zlarni o‘rganishga qaratilgan. Uning vazifalari quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Folklor tilidagi so‘zlar ko‘lamini aniqlash. Ularni yaxlit leksik tizim ko‘rinishida o‘rganish;
2. Folklor tilidagi so‘zlarning (konnotativ (o‘z) va denotativ (ko‘chma), bir ma’noli (monosemantik) yo ko‘p ma’noli (polisemantik) leksik-semantik qatlamlarini ochish;
3. Folklor tilidagi so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra shakldosh (omonim), ma’nodosh (sinonim), uyadosh, giperonim kabi turlarini oydinlashtirish;
4. Folklor tilidagi so‘zlarni tarixiylik (arxaizm, istorizm) va zamonaviylik (neologizm), genderlik, uslubiy (stilizm), sheva (dealektizm) yoki adabiy nutqqa xoslanganlik, o‘z yoki o‘zlashma (olinma) ekaniga ko‘ra etimologik nuqtai nazardan kuzatish;
5. Onomastikaning xalqchil tibbiy birliklar bilan munosabati hamda etnolingvistik yondashuvlar orqali izohlash.
6. O‘zbek folklori leksik qatlamini etnografizmlar, lingvokulturemalar sifatida o‘rganish.

Folklor tilini o‘rganishga e’tibor qadimdan mavjud. Bunga tilshunos, folklorshunos va elshunos Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari dalil bo‘la oladi. Unda qadimdan turkiy tilda qo‘llanib kelgan, ammo arablar istilosidan so‘ng ularning tili ta’sirida o‘z o‘rnini arabcha so‘zlarga bo‘shatib, yo‘qolib ketish xavfida qolgan so‘zlar izohi muayyan adabiy parcha misoldida dalillab keltirilgan. Shuning uchun bu asar “devon-lug‘at” nomini olgan. E’tiborli tomoni shundaki, bu kitobda ayrim tibbiy birliklar nomi ham keltirilgan. Ularning qo‘llanilishi o‘sha davr folklori namunalari: maqol, qo‘shiq matnlaridan keltirilgan misollar orqali dalillangan.

Demak, folklor asarlarida qo‘llanilgan so‘zlar folklor leksikonini tashkil qiladi. Ularning aksariyati qadimiy(arxaikligi), tarixiyligi, shevaga xosligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ularni tez va oson tushunib bo‘lmaydi. Buning uchun qadimiy ajdodlarning madaniy turmush sharoitidan, e’tiqodiy qarashlaridan, diniy tushunchalari hamda magik marosimlari tarixidan bilimga ega bo‘lish talab qilinadi.

Folklor tilini o‘rganishda xalq yaratgan asarlarning janriy xususiyati ham inobatga olinishi shart. Masalan, magik marosimlar folklorida sehr-jodu tushunchasi bilan bog‘liq so‘zlar ishtiroki kuzatiladi.

Shuningdek, folklor tilini o‘rganishda janr tuzilishi, uning matni ko‘لامi (makro yoki mikrostrukturasi) ham e’tiborga olinishi lozim, chunki bu orqali folklor leksikasining chastotasini belgilab ko‘rsatish imkon paydo bo‘ladi.

Xullas, folklor tili folklor ichidagi xalq nutqi namunalarini o‘rganish imkonini beradi. Buni uch aspektda olib borish mumkin:

1. Xalq og‘zaki poetik ijodida o‘z qat’iy o‘rniga ega bo‘lgan folklor janrlari (maqol, topishmoq, olqish, qarg‘ish, afsona, rivoyat, ertak, doston, qo‘shiq, askiya, latifa, lof kabi) tilini o‘rganish.
2. Folklor janrlari tilidagi muayyan leksik birliklarni (lingvokulturemalar, etnografizmlar, tabular, evfemizmlar, dialektizmlar, psixologizmlar, stilizmlar, tibbiy birliklar kabi)ni o‘rganish.
3. Folklor janrlari tilida badiiy maqsadlarda qo‘llangan va poetik san’at darajasiga ko‘tarilgan so‘zlar qo‘llanishi, ular bilan bog‘liq ma’no ko‘chish yo‘llarini (epitetlar, tashbehtar, metaforalar, metonimiylar, sinekdoxalar, kinoya kabi) tadqiq qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир // ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти асарлари. –Тошкент: Фан, 1949. – Б. 2526.
2. Жабборов И. Ўзбек халқ этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 312 б.
3. Имомов К. Ўзбек халқ насли поэтикаси. – Т.: Фан, 2008. – 252 б.
4. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Т.: Aloqachi, 2008. – 560 b.
5. Нурмонов А., Махмудов Н., Собиров А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Илм зиё, 2013. – 590 б.
6. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.
7. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: Musiqachi, 2010. – 368 b.
8. Safarov O., O'ганева D. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi. O'quv qo'llanma. 2 jildlik. 1-jild. – Buxoro, 2006. – B.119-129.
9. Navruzova, M. (2023). Lexical-semantical features of some medical linguistic units. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 28(28).
10. Navruzova, M. (2023). О 'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA TIBBIY BIRLIKARINING QO'LLANILISHINI KORPUS VOSITASIDA TADQIQ ETISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 28(28).
11. Navruzova, M. (2023). ТИББИЙ ТЕРМИНЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШ АСОСЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 28(28).
12. Navruzova, M. (2022). MAQOLLARDA-SOMATIK BIRLIKAR. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 1(28), 257-265.
13. Navruzova, M. (2023). ТИББИЁТ ВА ТЕРМИНОЛОГИЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).
14. Navruzova, M. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛУГ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 28(28).
15. Navruzova, M. (2023). Тиббий бирликлар тадқики. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 28(28).

VIRTUAL MULOQOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xalilova Ruxsora Raupovna,
Buxoro davlat universiteti
Boshlang'ich talim kafedrasи dosenti

Annotatsiya. Maqolada jahon kompyuter tarmog'i turli etnik va madaniy jamoalar vakillari o'rtasida muloqot uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib berar ekan, Internet tilshunoslikda til va madaniyat muammosini yoritib berish, virtual nutqiy muloqot odamlarning muloqotini yangi darajaga olib chiqdi. Virtuallik, kommunikatorlarning teng huquqliligi; gipertekst uslubi kabi kompyuter nutqining o'ziga xos xususiyatlari haqida mushohada yuritilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy muloqot, virtual nutqiy muloqot, muloqot jarayoni, kommunikativ maydon, forum, ijtimoiy tarmoq, blog, audio-vizual muloqot, internet.

Аннотация: В статье Виртуальное речевое общение подняло человеческое общение на новый уровень. Виртуальность, равенство коммуникаций; наблюдение об особенностях компьютерной речи, например о стиле гипертекста. В статье высказаны обоснованное мнение об акценте на адрес персонализированное на направление общения, на временное направление на уровень интерактивности регулирование с учетом параметров организации связи.

Ключевые слова: речевое общение, виртуальное речевое общение, коммуникативный процесс, область общения, форум, социальная сеть, блог, аудиовизуальное общение, Интернет.

Abdullayeva Feruza Nurillayevna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIY ASARLARNI O'RGATISHDA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH	167
F.M.Qosimov, R.Dilmurodova. VAQT O'LCHOVLARINI O'RGATISHDA IJODIY YONDASHISH	171
M.M.Qosimova, Ikromova Sevinch. BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA O'QITISHDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH BO'YICHA TAVSIYALAR	174
Adizova Nigora Baxtiyorovna. DIVERGENT TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING O'ZIGA XOS AHAMIYATI.....	177
Adizova Nodira Baxtiyorovna. TALABALARING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI KORPUSLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI	179
Navruzova Muyassar Gaybullayevna. "FOLKLOR TILI" TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI.....	181
Xalilova Ruxsora Raupovna. VIRTUAL MULOQOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	184
Nurova Yulduz Ubaydullayevna. O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA UCHROVCHI KIYIMGA YORDAMCHI BUYUMLARNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	186
Xalilova Ruxsora Raupovna, Muzaffarova Niginabonu Ixtiyorovna, Nabiyeva Maftuna Nabi qizi. VIRTUAL MULOQOTDA XALQONA RUHNING IFODALANISHI.....	189
Rajabova Nodirabegim Komilovna. BLENDED LEARNING ARALASH TA'LIMDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	190
Yusufzoda Shabnami Yunus. RAQAMLARNI ANIQ VA CHIROYLI YOZISH METODIKASI	192
Narziyeva Mastura Sunnatovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	197
Davronov Dilshodbek Ismoilovich. BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA BADIY MATN USTIDA ISHLASHDA INTEGRATSİYALASHGAN MEDIATA'LIMNING MAZMUNI VA UNING QO'LLANILISH METODIKASI	200
Ashurova Marhabo Sayfullo耶evna. HUSAYN VOIZ KOSHIFIY QARASHLARIDA INSONIY FAZILATLARNING MA'NAVIY- AXLOQIY JIHATLARI	202
Qambarov Mirzobobur Baxodir o'g'li. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI.....	207
Toyirova Nazokat Moxirovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI O'RTASIDA METAPREDMETLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH	209
Tangirqulov Elmurod Aliyarovich. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH	212
Husenova Aziza Sharipovna, Jalilova Shoira. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SIFAT SAMARADORLIGIGA ERISHISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI	214
Турдиева Нигора Сайдовна. ИНТЕГРАЦИЯ ПРЕДМЕТОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ	215
Ашуррова Хуршида Асроровна. КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	219
Aslanova Nargiza Xakimovna. DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA O'QUVCHILARNI IJODKORLIKKA YO'NALTIRISH	221
Djurayeva Salomat Nabi耶evna. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH	223
Nuradilova Aselxon Dilshodhuja qizi. INNOVATION TA'LIM – YANGI NATIJALARGA QARATILGAN TA'LIM	226
Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna. KOMMUNIKATIVLIK TAMOYILI ASOSIDA O'QUVCHILARDA PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	228
Husenova Aziza Sharipovna, Akramova Nodira. BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV	232
Qayimov Laziz Mirzo o'g'li. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QIB TUSHUNISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH.....	234
Aytbayev Dilshodhuja Temirbayevich. O'ZBEK TILINING INTONATSION XUSUSIYATLARI	236
Салихов Шохрух Мансурович. ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНФОРМАЦИИ НОВОЙ ЭПОХИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ	238
Lukmonova Salomat Gafurovna. BOSHLANG'ICH SINFLARDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH MUAMMO VA YECHIMLARI.....	242